

HARRY POTTER ASARIDA ATOQLI OTLARNING TARJIMADA AKS ETTIRILISHI: INGLIZ, ARAB VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA QIYOSIY TAHLIL

Abduraimova Dildora Karim qizi - BA student of TSUULL

Scientific advisor: **N.B. Rashidova**, TSUULL

Annotatsiya: Ushbu maqolada J.K. Roulingning “Harry Potter” asaridagi atoqli otlarning tarjimada aks etish masalalari ingliz, arab va o‘zbek tillari misolida ilmiy tahlil qilinadi. Turli tillardagi tarjimalarda nomlar semantik, fonetik shakl va madaniy konnotatsiyalari bo‘yicha qanday o‘zgarishi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda atoqli otlarni tarjima qilishda uchraydigan muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari hamda samarali tarjima strategiyalari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: atoqli ot, badiiy tarjima, Harry Potter, transkripsiya, semantik-ekvivalent, madaniy nomlar, qiyosiy tahlil.

Annotation: This article provides a scholarly analysis of how proper names in J.K. Rowling’s *Harry Potter* are rendered in translation across English, Arabic, and Uzbek. It examines the semantic shifts, phonetic forms, and cultural connotations that emerge in different linguistic contexts. Drawing on the findings of the study, the article identifies common challenges in translating proper names, discusses possible solutions, and proposes effective translation strategies.

Keywords: proper names, literary translation, Harry Potter, transcription, semantic equivalence, cultural names, comparative analysis.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ отражения имен собственных в произведении Дж. К. Роулинг «Гарри Поттер» на примере английского, арабского и узбекского языков. Рассматриваются изменения семантики, фонетических форм и культурных коннотаций при переводе на разные языки. На основе результатов исследования выявляются основные

проблемы перевода имен собственных, предлагаются пути их решения и эффективные переводческие стратегии.

Ключевые слова: *имена собственные, художественный перевод, Гарри Поттер, транскрипция, семантический эквивалент, культурные названия, сравнительный анализ.*

Badiiy tarjima dunyo adabiyotining eng muhim elementlaridan biri bo‘lib, u nafaqat matnni boshqa tilga o‘tkazadi, balki muallifning badiiy niyati, madaniy xususiyatlari va lingvistik o‘ziga xosligini o‘quvchiga yetkazishga xizmat qiladi.

J.K. Rouling yaratgan “Harry Potter” asari nafaqat syujeti, balki undagi nomlarning semantik va madaniy qiymati bilan ham ajralib turadi. Asardagi aksariyat atoqli otlar o‘quvchiga qo‘shimcha ma’no beradi: personajning xarakterini ko‘rsatadi, voqealarga ishora qiladi yoki ingliz tiliga xos so‘z o‘yinlarini mujassam etadi. “Tarjimaning asosiy vazifasi — o‘quvchiga nafaqat nomning ma’nosini, balki uning badiiy, hazil va stilistik qatlamini yetkazishdir” (Baker, 2018). Shu sababli mazkur nomlarning tarjimasi turli tillarda o‘zga muammolarni yuzaga keltiradi va bu masala hozirgi davr tarjimashunosligi uchun dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa ingliz tili bilan tuzilishi keskin farqlanuvchi arab va turkiy o‘zbek tillarida nomlar qanday aks ettirilishi alohida ilmiy e’tiborni talab qiladi.

Atoqli otlar oddiy leksemalardan farqli o‘laroq ikki funksiyani bajaradi: identifikativ va ma’nodorlik vazifasi (Karimov, 2020). Tarjima jarayonida shularning qaysi biri ustun qo‘yilishi kerakligi bo‘yicha hamon yakdil yondashuv yo‘q. “Harry Potter” romanlari misolida ko‘plab tarjimalarda identifikatsiya ma’nosi saqlanib, semantik yuk yo‘qolib ketgan hollari ko‘p uchraydi. Bu esa asarning badiiy-estetik qiymatini pasaytiradi. Mazkur maqola aynan shu muammoni yoritadi, mavjud tarjimalarni tahlil qilib, ilmiy asoslangan yechimlarni taklif etadi.

Atoqli otlarning ingliz tilidan o‘zbek va arab tillariga o‘tish jarayoni turlicha bo‘lib, buni muayyan misollar orqali ko‘rish mumkin. Masalan, “Severus Snape” nomi ingliz tilida “snake” (ilon) so‘ziga fonetik o‘xshashlik bilan qahramonning sirli, sovuq tabiatiga ishora qiladi. O‘zbek tarjimasida “Sneyp” shakli ya’ni talaffuzdagi shakl

aslicha qoldirilgan bo‘lsa-da, semantik o‘xshashlik yo‘qolgan.. Arab tilidagi tarjimada esa “سنيب سيفروس” (Sayfrus Snīb) tarzida fonetik moslashuv beriladi; bunda ham yashirin ma’no qisman sezilmay qoladi. Bu hol shuni ko‘rsatadiki, fonetik moslashuv (transkripsiya) semantik ma’noni to‘liq bera olmaydi.

Yana bir misol — “Hogwarts”. Asl nom etimologik jihatdan “hog” (cho‘chqa) va “wart” (to‘qmoq) so‘zlarining hazil aralash birikmasi bo‘lib, maktabning g‘ayritabiiy muhitiga ishora qilingan. O‘zbek tarjimasida nom “Xogvarts” shaklida berilib, semantik tushuncha yo‘qolgan. Arab tilida esa “هوجورتنس” (Hujūwirts) deb yoziladi va bunda madaniy konnotatsiyalar yanada noaniqlashtirilgan, chunki arab dunyosida cho‘chqa obrazi diniy sabablarga ko‘ra salbiy yoki nojoiz ko‘riladi. Shu bois arab tarjimonlari ongli ravishda semantik ma’nodan voz kechib, fonetik shaklni ustun qo‘ygan. Bu, o‘z navbatida, tarjimonning madaniy moslashuvga oid qarorlarining qanchalik muhimligini ko‘rsatadi.

Mavjud muammolardan yana biri shundaki, “Harry Potter”dagi ko‘plab nomlar — gap ustida qurilgan, metaforaga ega yoki shevaga xos. Masalan, “Moaning Myrtle”, “Nearly Headless Nick”, “Diagon Alley”, “Knockturn Alley” kabi nomlarda o‘yinlari mavjud. “Diagon Alley” nomi J.K. Roulingning Garri Potter seriyasida juda zo‘r so‘z o‘yini bo‘lib, “diagon” (diagonal so‘zidan) va “alley” (ko‘cha) so‘zlaridan tuzilgan. Uni tez aytganda “diagonally” (diagonal bo‘ylab) degandek eshitiladi. Bu nom Muggle dunyosidan chetroqda, biroz egri-bugri, yashirin ko‘cha ekanini anglatadi. Shu kabi so‘z o‘yini “Knockturn Alley” (nocturnally — tun qorong‘usida) nomida ham davom ettirilgan. Diagon Alley — sehrgarlar savdo qiladigan joy, g‘alati, egri ko‘cha bo‘lib, oddiy dunyodan keskin farq qiladi. U ko‘pincha Angliyadagi York shahrining qadimiy Shambles ko‘chasi kabi o‘rta asr uslubidagi tor ko‘chalardan ilhom olgan deb aytiladi. O‘zbek tarjimasida “Diagonal xiyoboni”, arabchada “آلي دايجون” kabi variantlar qo‘llanilgan. O‘zbekcha shakl ma’noni yaxshi ochadi, ammo hazil ohangi pasayadi; arabchada esa ma’no butunlay yo‘qoladi. Bu holat semantik va stilistik barqarorlikni ta’minlash qanchalik murakkab ekanini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida olingan xulosalarga ko‘ra, atoqli otlarni tarjima qilishning bir necha ilmiy asoslangan yo‘llari mavjud. Birinchisi, semantik-ekvivalent yondashuv — nom ichidagi yashirin ma‘noni ochib, uni qabul qiluvchi tilga mos ravishda berish. Masalan: “The daily prophet” so‘zi so‘zma so‘z tarjima qilinadigan bo‘lsa “kundalik elchi” birikmasi hosil bo‘ladi va bu kontekstual ma‘no buzulishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun semantik-ekvivalent yondashuvdan foydalanib “Sehrgarlar xabarchisi” deb nomlaganimiz maqulroqdir. Ikkinchisi, aralash usul — fonetik shaklni qisman saqlagan holda ma‘no yoki ishoraviy elementlarni qayta tiklash. Uchinchi usul — kontekstual izohli tarjima, ya‘ni nomni aslicha qoldirib, zarur bo‘lsa izoh berish. Bu ayniqsa arab tilida samarali, chunki madaniy farqlar katta. Masalan, “Hogwarts” nomi aslicha qoladigan bo‘lsa, arab o‘quvchilari uchun kitobning ilovasida qisqa etimologik izoh berilishi o‘quvchiga asarning umumiy manosi tezroq tushunishga yordam beradi.

Kutilayotgan natijalar shundan iboratki, atoqli otlarni tarjima qilishga ilmiy asoslangan yondashuv qo‘llanilsa, asar mazmuni, obrazlar xarakteri va muallifning estetik niyati kengroq saqlanadi. Shuningdek, o‘zbek tarjimashunosligi ham atoqli otlar tarjimasi yo‘nalishida yanada rivojlanishi mumkin; arab tilida esa madaniy moslashuv va izohli tarjima metodlari bilan natija sezilarli yaxshilanadi. Umuman olganda, ingliz–arab–o‘zbek qiyosiy tajribasi tarjimonlarga yanada puxta qaror qabul qilish majburiyatini qo‘yadi.

Xulosa qilib aytganda, “Harry Potter” asaridagi atoqli otlarni tarjima qilish masalasi faqat lingvistik emas, balki madaniy, psixologik va interpretativ yondashuvni talab qiladigan murakkab jarayondir. Nomlar o‘zida obraz, hazil, semantika, tarixiy alluziyalar va fonetik o‘yinlarni mujassam etgani uchun ularni boshqa tilga ko‘chirishda har bir elementni alohida baholash zarur. Mazkur maqola tahliliga tayangan holda aytish mumkinki, “eng maqbul strategiya — semantikani imkon qadar tiklagan holda, fonetik uyg‘unlikni saqlovchi aralash yondashuvdir”(Baker, 2018). Bu nafaqat tarjimaning badiiy qiymatini, balki o‘quvchining asar haqidagi taassurotini ham ancha boyitadi.

Shuningdek, maqola tadqiqotida aniqlanishicha, atoqli otlarni tarjima qilish jarayonida muallifning lingvistik mahoratin, hazili, metaforik va soʻz oʻyinlarini saqlash muhim ahamiyatga ega. Shu sababli tarjimashunoslik va adabiy tarjima amaliyotida nazariy bilimlar va qiyosiy tahlil oʻquvchilar va tarjimonlar uchun muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Kelajakda ushbu yondashuvlar asosida oʻzbek va arab tarjimalarida quidagi natijalarga erishish mumkin:

1. muallif niyatining badiiy va semantik jihatlari yaxshiroq saqlanadi,
2. soʻz oʻyinlari va metaforalarning tarjimada uzatilishi oshadi,
3. oʻquvchilarning asarni tushunish va baholash imkoniyati kengayadi,
4. tarjima maktablari va tarjimonlar malakasining rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Shu bilan birga, atoqli otlarni tarjima qilish tajribasi boshqa badiiy asarlar uchun ham qoʻllanilishi mumkin boʻlgan samarali metodologiya sifatida tavsiya etiladi. Natijada, tarjima jarayoni nafaqat tilni oʻrganish, balki madaniyatlararo aloqani rivojlantirish vositasi sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rowling, J. K. Harry Potter Series. London: Bloomsbury Publishing, 1997–2007.
2. Ahmad, F. Harry Potter wa Hajar al-Sihr. Qohira: Nahdet Misr, 2002.
3. Newmark, P. A Textbook of Translation. London: Prentice Hall, 1988.
4. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd edition. London: Routledge, 2018.
5. Karimov, U. “Atoqli otlarning tarjimada uzatilishi masalalari.” Oʻzbek tili va adabiyoti, No. 4, 2020, pp. 23–35.